

FAROBİYNING ILM-FAN TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

Rustamov Akrom

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti

Annotatsiya: mazkur maqolada buyuk alloma Abu Nasr al-Farobiyning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, uning falsafiy, mantiqiy, ijtimoiy-siyosiy va tabiiy-ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Farobiy Sharq Uyg‘onish davrining asoschilaridan biri bo‘lib, ilm-fanning tizimlashtirilishi, jamiyat hayotidagi o‘rni va axloqiy-ma‘naviy qadriyatlar to‘g‘risidagi fikrlar tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: falsafa, mantiq, jamiyat, axloq, ma‘naviyat, qadriyat.

ВКЛАД ФАРАБИ В РАЗВИТИЕ НАУКИ

Рустамов Акром

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Аннотация: в статье анализируется вклад великого ученого Абу Насра аль-Фараби в развитие науки, его философские, логические, социально-политические и естественнонаучные взгляды. Фарук является одним из основоположников Восточного Возрождения, и в статье рассматриваются его идеи о систематизации науки, ее роли в обществе, а также нравственных и духовных ценностях.

Ключевые слова: философия, логика, общество, этика, духовность, ценности.

FAROBİ'S CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE

Rustamov Akrom

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abstract: this article analyzes the contribution of the great scholar Abu Nasr al-Farobii to the development of science, his philosophical, logical, socio-

political and natural-scientific views. Farobi is one of the founders of the Eastern Renaissance, and his ideas on the systematization of science, its role in the life of society, and moral and spiritual values are studied.

Keywords: *philosophy, logic, society, morality, spirituality, value.*

Kirish

O'rta asr Sharq tamadduni tarixida Abu Nasr al-Farobiyning tutgan o'rni beqiyosdir. U o'zining chuqur falsafiy bilimlari, mantiqiy tahlillari, ijtimoiy-siyosiy qarashlari hamda tabiiy fanlar borasidagi yondashuvlari bilan nafaqat Sharq, balki Yevropa ilm-faniga ham katta ta'sir ko'rsatgan [1]. Farobiy o'zinig bir qancha asarlarida Arastu tomonidan ilgari surilgan, inson, eng avvalo, ijtimoiy hodisa deb ta'riflagan g'oyani yanada aniqlashtirib, quyidagilarni yozadi: "Har bir inson, o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oiliy darajadagi yetuklikka erishish uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi va ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoji tug'ulad. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda, ularning harbiriga yashash va yetuklikka erishuvi uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'payadilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rtnashadilar, natijada inson jamoasi vujudga keladi.

Asosiy qism

Abu Nasr Farobiy (873-950) riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan. U yoshligidan juda iste'dodli, zehni o'tkir, xotirasi kuchli bo'lgan. Farobiy Eron va O'rta Osiyolik mutafakkirlar Nazzam, Ravandiy, Ar-Roziy; qadimgi yunon faylasuflari: Suqrot, Aristotel, Platon, Galiley ta'limotlarini chuqur o'rgangan. Beruniy, Ibn Sino va Firdavsiy mutafakkirlar singari oila, uy-joy orzusini ilm yo'lida qurbon qilib, butun umrini fanga bag'ishlagan. U 160 dan ortiq asar yozib, o'rta asr ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan. Bu asarlar orasida "Arastuning metafizika asariga sharh", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Tirik mavjudot a'zolari haqida", "Fozil odamlar shahri" asarlari muhim ahamiyatga ega. Mutafakkirning ilm-fan oldidagi ulkan xizmatlaridan yana biri bu uning yunon olimlarining asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g'oyalar bilan boyitganligidir. Farobiy yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan uchun Sharqda Arastudan (Aristotel) dan keyingi yirik mutafakkir – "Muallim us-soniy" va "Sharq Arastusi" nomlari bilan shuhrat topgan.

Farobiy yunon faylasufi Aristotelning asarlarini izohlab, ularni musulmon Sharqiga tanitgan. U mantiq fanini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan, mantiqiy tafakkurni ilmiy metod sifatida asoslab bergan[2]. Farobiy tushunchalar, hukmlar va xulosalar kabi mantiqiy shakllarni qarab chiqishga katta e'tibor bergan. Tushunchaning mantiqiy tuzilishini tekshirib, Farobiy mufassal ravishda tushunchalarning tur va xildagi munosabatlari, bo'linishlari va turli ko'rinishdagi tavsif va belgilari hamda ilmiy tushunchalarning xos xususiyatlari – ularning oddiy tushunchalardan farqi, ularning tildagi ifodasi, ya'ni ilmiy istilohlar masalasiga

to‘xtab o‘tadi. Hukmlarni tadqiq qilib, Farobiy hajm va mazmundan kelib chiqib, subyekt (ega) va predikat (kesim)ning o‘zaro munosabatlarini qarab chiqadi. Farobiyning hukmlarni ularda predikatlar sifatida chiqadigan predikabillarga bog‘liq ravishda ajratishga urinishi alohida e‘tiborga sazovordir. Farobiy mantiqda ilmiy bilimning usulini ko‘rdi. Mantiq fikriy jarayonning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlash uchun xizmat qiladi va kategoriyalar, ya‘ni aql bilan tushuniladigan mohiyatlar bilan ish ko‘radi. “Mantiq, - deb yozadi Farobiy, - qachonki falsafaning u yoki bu qismlarida qo‘llanilsa, mohiyat jihatidan qurol bo‘lib, uning yordamida nazariy san‘at nimani qamrab olgan bo‘lsa, o‘shalarning barchasi haqida ishonchli bilimlarga erishtiradi”. Farobiy mantiqiy terminlarni (atamalarni) ishlab chiqishga ham katta hissa qo‘shdi. Shu bois uni “Ikkinchi muallim” deb atashgan. Farobiy fanlarni tasniflab, ularni amaliy va nazariy fanlarga ajratgan. Unga ko‘ra, nazariy fanlar-fizika, matematika va metafizikadan iborat bo‘lsa, amaliy fanlar-axloq, siyosat va iqtisod sohalarini o‘z ichiga oladi [3]. Bu tasnif keyingi asrlardagi olimlarga ilmiy yo‘nalish tanlashda asos bo‘lib xizmat qilgan. Farobiy “Fozil shahar” asarida ideal jamiyat modeli haqida fikr yuritgan. Bu jamiyatda bilimdon va donishmand insonlar rahbarlik qiladi, axloqiy qadriyatlar ustuvor hisoblanadi [4]. Bu qarashlar keyingi siyosiy-falsafiy tafakkur rivojida asosiy yo‘nalish bo‘lgan. Farobiy astronomiya, fizika, musiqa nazariyasi va tibbiyotga oid asarlar yozgan. U musiqa ilmiga matematik asos bilan yondashib, Sharq musiqa nazariyasining ilmiy poydevorini qo‘ygan[5]. Farobiy insonni tafakkur orqali kamol topadigan mavjudot deb bilgan. Uning fikricha, ta‘lim va tarbiya – jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lib, ilm-fan insonni fozilga aylantiradi [6].

Bu fikrlardan Farobiyning ta'lim-tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi. Uning ta'kidlashicha, bilim bilangina maqsadga erishilmaydi va bola ham yetuk bo'lmaydi. Olim daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloq bilan yakunlanishini aytadi. Farobiyning axloqiy tafakkurida inson hayotining pirovard maqsadi baxtga erishishdir, uni u intellektual va ma'naviy barkamollik bilan tenglashtirgan. U axloqiy fazilatlar bu baxtga erishish uchun zarur deb hisoblagan va bu fazilatlar fazilatli rahbar tomonidan aql va yo'l-yo'riqdan to'g'ri foydalanish orqali rivojlanadi. Al-Farobiy, shuningdek, jamiyatning fazilatni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlab, yaxshi jamiyat shaxslarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishda hal qiluvchi ro'l o'ynashini ta'kidladi. Umuman, Farobiy o'z davridagi yoshlarning ta'lim olishlari, bilim egallashlari, hunar egallashlari, faoliyat ko'rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildirgan. Bu fikrlar hozirda ham ta'lim-tarbiyaga g'oyat muhimdir.

Xulosa

Farobiy nafaqat o'z davrining, balki butun insoniyat tarixining buyuk mutafakkirlaridan biridir. Uning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi, metodologik yondashuvlari va gumanistik qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Farobiyning merosi-ilm-fanni faqat nazariy emas, balki amaliy, axloqiy va ijtimoiy hayotga ham tadbiq etish zarurligini ko'rsatadi. Farobiy falsafa tarixida zamonaviy falsafiy va diniy munozaralarda aks sado berishda davom etayotgan monumental shaxs sifatida turadi. Uning yunon falsafasini Islom tafakkuri bilan sintezi nafaqat o'z davrining intellektual an'alarini rivojlantirdi, balki kelajak avlod faylasuflari uchun ham asos yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nasr, S. H. (2006). "Science and Civilization in Islam". Harvard University Press.
2. Gutas, D. (2001). "Avicenna and the Aristotelian Tradition: Introduction to Reading Avicenna's Philosophical Works". Brill.
3. Al-Farabi. (1985). "Kitāb al-'Ilm" (Ilm haqida kitob). Qayta nashr: Beirut: Dar al-Mashriq.
4. Al-Farabi. (1995). "Madīnat al-fāḍilah" (Fozil shahar). Tarjimasi va izohlar bilan. El-Kutub al-'Ilmiyya, Beirut.
5. Farmer, H. G. (1965). "Historical Facts for the Arabian Musical Influence". Oxford University Press.
6. Muhammedov, A. (2003). "O'zbekiston faylasuflari merosi". Toshkent: Fan nashriyoti.